

O'zbekiston Respublikasi
sog'liqni saqlash
vaziri v.b.
A. Xudayarovning
2024-yil ____ -martdagi
____-son buyrug'iga 3-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash
METODIKASI**

Mazkur Metodika O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi (bundan buyon matnda jamoatchilik kengashi deb yuritiladi) faoliyati samaradorligini reyting baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi (bundan buyon matnda Metodika deb yuritiladi) tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, jamoatchilik kengashi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o'zini o'zi baholash usuli orqali aniqlash va erishilgan samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha keng jamoatchilikning xolisona bahosini olish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Jamoatchilik kengashining faoliyati yilda ikki marotaba mazkur Metodikada belgilangan samaradorlikni reyting baholashning asosiy ko'rsatkichlari asosida baholab boriladi.

3. Jamoatchilik kengashlarining samaradorlik bo'yicha reytingini shakllantirish ular faoliyatining ayrim jihatlarini (miqdor va sifat ko'rsatkichlarini) muayyan mezonlarga ko'ra har tomonlama tahlil qilish va baholash orqali amalga oshiriladi.

4. Jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ochiqlik va shaffoflik;
- qulaylik (baholash onlayn va offlayn shaklda ham tashkil etiladi);
- kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- keng qamrovlik (jamiyatning barcha toifadagi a'zolari ishtiroki);
- hisobdorlik.

2-bob. Reyting baholash maqsad va vazifalari

5. Metodika quyidagi maqsadlarni qamrab oladi:

a) jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish, unga faol va tizimli tus berish;

b) jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini o'zini o'zi baholash vositasi yordamida amalga oshirish;

c) jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning oshkoraligi va ochiqligini ta'minlash, jamoatchilik kengashlari faoliyatiga fuqarolar tomonidan xolis baho berish imkoniyatini yaratish;

d) jamoatchilik nazorati sub'yektlari, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi

boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi axborot hamkorligini takomillashtirish.

6. Quyidagilar Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish;

faoliyatning ayrim sohalarida davlat siyosatini ishlab chiqishda tarmoqlararo va idoralararo o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligini baholashni o'zini o'zi nazorat qilish orqali amalga oshirish;

jamoatchilik kengashi faoliyatiga keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining e'tiborini jalb qilish.

3-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reytingini shakllantirish ishlarini tashkil etish

7. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash ishlarini tashkil etish har yili iyun va dekabr oylarining 15-sanasiga qadar Sog'liqni saqlash vaziri buyrug'i asosida jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo'yicha komissiya (bundan buyon komissiya deb yuritiladi) tuzish orqali amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga kelishuv asosida Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari kiritilishi mumkin.

Bunda Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlari komissiya tarkibining uchdan bir qismini tashkil etishi hamda komissiya a'zolari ro'yxati mazkur vazirlikning rasmiy veb-saytida oldindan e'lon qilinishi lozim.

8. Komissiya tomonidan jamoatchilik kengashi faoliyati: samaradorligini baholash reytingi bo'yicha yakuniy natijalar asoslantiruvchi hujjatlari bilan birgalikda baholash ishlari o'tkazlayotgan oyning 20-sanasiga qadar Sog'liqni saqlash vaziriga hamda jamoatchilikka taqdim etilishi lozim.

Bunda, ma'lumotlarning komissiyaga belgilangan muddatdan kechikmay, sifatli va to'g'ri taqdim etilishi uchun jamoatchilik kengashi a'zolari hamda jamoatchilikka taqdim etilishi uchun Sog'liqni saqlash vaziri mas'ul hisoblanadi.

9. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reytingini aniqlashga oid ma'lumotlar va ularning asoslantiruvchi hujjatlari komissiya tomonidan qo'shimcha o'rganilishi mumkin.

Asoslantiruvchi hujjatlari mavjud bo'lmagan, shuningdek haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki asossiz ma'lumotlar reytingni hisoblashda inobatga olinmaydi.

4-bob. Metodikani qo'llash shartlari

10. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash mezonlari qonunchilik hujjatlari bilan jamoatchilik kengashiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga asoslanadi.

11. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reyting bahosi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi hisobotlar;

jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining bergan bahosi, taklif va mulohazalari.

12. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi ushbu Metodikaning ilovasida belgilangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Jamoatchilik kengashi mazkur Metodika namunasi asosida o'z metodikalarini ishlab chiqishlari hamda uning qoidalarini takomillashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirining roziligi bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin.

14. Komissiya tomonidan jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash bo'yicha olingan yakuniy natijalar jamoatchilik kengashiga ma'lumotnoma ko'rinishida, Vazirlikka esa tahliliy ma'lumotnoma shaklida taqdim etiladi.

15. Jamoatchilik kengashi tomonidan jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash natijalari har olti oyda Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda reyting natijalari haqida jamoatchilikka ma'lumot beriladi.

5-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reyting ballarini hisoblash tartibi

16. Reytingni hisoblash mazkur Metodika ilovasida keltirilgan baholash mezonlari asosida matematik metodlar orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha alohida hisoblanadi.

17. Komissiya a'zolari reyting baholash natijalari bo'yicha xulosa berganda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan quyidagi umumiy talablarni inobatga olish zarur:

a) jamoatchilik kengashi faoliyatidan aholining manfaatdorligi, fuqarolar bilan jamoatchilik kengashi o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi;

Bunda, komissiya a'zolari tomonidan jamoatchilik kengashining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro aloqalari, axborot resurslari, rasmiy veb-saytlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik kengashi faoliyatiga oid chop etilgan muayyan mavzulardagi materiallar, ularning ijtimoiy tarmoqlar va axborot platformalarida foydalanish uchun joylashtirilganlik holatlarini monitoring qilish orqali xulosa qilinadi.

b) jamoatchilik kengashi tomonidan jamoatchilik muhokamasi paytida berilgan takliflarning rasmiy qarorlarda yoki qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda inobatga olinganligi.

Ushbu ko'rsatkich jamoatchilik kengashi tomonidan bildirilgan izoh va takliflarga mos keladigan o'zgarishlarni qarorlarning yakuniy versiyasini (rasmiy hujjatlar) taqqoslash orqali aniqlanadi.

v) jamoatchilik kengashini tashkil etgan vakolatli organ faoliyati jamoatchilik kengashlar tomonidan ko'tarilgan masalalar orqali yaxshilanganligi holati jamoatchilik nazorati yoki jamoatchilik ekspertizasi orqali).

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha vakolatli organ faoliyati hamda qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha jamoatchilik kengashi tomonidan belgilangan tashabbuslar ko'rib chiqiladi.

18. Mazkur Metodikaning ilovasida keltirilgan baholash mezonlari asosida har bir ko'rsatkich yuzasidan to'plangan umumiy ballardan quyidagicha reyting shakllantiriladi.

60 ball va undan yuqori bo'lganda – a'lo;

40 balldan 59 balgacha bo'lganda – yaxshi;

21 balldan 39 ballgacha bo'lganda – qoniqarli;

20 dan kam ball bo'lganda – qoniqarsiz.

19. Reyting baholash natijalari Komissiya yig'ilishida bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunda komissiya majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish komissiya kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

20. Komissiya yig'lishi bayonnomasi shu vaqtning o'zida komissiyaning har bir a'zosi tomonidan imzolanadi hamda tasdiqlash uchun komissiya raisiga taqdim etiladi.

21. Komissiya kotibi komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan bayonnoma bilan barcha mas'ul xodimlarni shu kunning o'zida tanishtirishi shart.

6-bob. Yakuniy qoida

22. Reyting natijalariga oid ma'lumotlar jamoatchilik kengashlari ishchi organida uch yil davomida saqlanadi.

**Sog'liqni saqlash vazirligi
huzuridagi jamoatchilik kengashi
faoliyati samaradorligini reyting
baholash metodikasiga
ILOVA**

**Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting
baholashga oid asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash
TARTIBI**

T/r	Mezon va ko‘rsatkichlar	Baholash mezonlari		
		Ko‘rsatkichlarning bajarilish holati (yarim yillik bo‘yicha)	Yakuniy natija	
I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-son qaroriga muvofiq iamoatchilik kengashi faolivatini tashkil etish holati bo‘yicha				
1.	Jamoatchilik kengashi faoliyatini uni tashkil etgan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq tashkil etish	nizom ishlab chiqilgan	“2” ball	qoniqarli
		ishlab chiqilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
2.	Jamoatchilik kengashi tarkibiga davlat organida namunali xizmat qilgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyatida katta amaliy tajribaga ega nufuzli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan vakillarni kiritish.	jamoatchilik kengashi tarkibida shunday vakillar mavjud	“4” ball	yaxshi
		jamoatchilik kengashida bunday vakillar yo‘q	“0” ball	qoniqarsiz
3.	Jamoatchilik kengashi tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilish	davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilingan	“1” ball	qoniqarli
		e’lon qilinmagan	“0” ball	qoniqarsiz

4.	Jamoatchilik kengashi faoliyatida ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etish va tajribali mutaxassislarni jalb qilish	ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etilgan	“1” ball	qoniqarli
		ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
5.	Jamoatchilik kengashining yillik tasdiqlanadigan ish rejalarining mavjudligi	ish reja shakllantirilgan	“1” ball	qoniqarli
		ish reja shakllantirilmagan	“0” ball	qoniqarsiz

II. Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarining soni va shakli

1.	Jamoatchilik kengashini tashkil etgan davlat organi faoliyatini o‘rganish va uni yaxshilash borasida takliflar ishlab chiqish bo‘yicha jamoatchilik kengashi majlislarini tashkil etish (hisobot davri bo‘yicha)	majlislar tashkil etilgan, davlat organiga takliflar taqdim etilgan	“5” ball	yaxshi
		majlislar tashkil etilgan, takliflar taqdim etilmagan	“2” ball	qoniqarli
		majlislar tashkil etilmagan, takliflar mavjud emas	“0” ball	qoniqarsiz
2.	Davlat organlari faoliyatining ochiq, shaffof ishlashi, amaldorlarning xalq oldida hisobdorligi, davlat tashkilotlarida byudjetning oqilona sarflanishining samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish istiqbollari bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan turli xil tadbirlar tashkil etish (ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, “davra suhbatlari”, seminarlar va b.)	Jamoatchilik kengashi tomonidan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilgan	“3” ball	qoniqarli
		Jamoatchilik kengashi tomonidan “davra suhbatlari” va seminarlar o‘tkazilgan	“2” ball	qoniqarli
3.	Jamoatchilik kengashlari tomonidan nufuzli xalqaro tashkilotlar, shuningdek xorijiy davlatlar fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda	tadbir o‘tkazilgan	“1” ball	qoniqarli

	Jamoatchilik kengashlari tomonidan nufuzli xalqaro tashkilotlar, shuningdek xorijiy davlatlar fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda faoliyatni yaxshilash, bu borada xorij tajribasini o'rganish yuzasidan tadbirlar o'tkazish (bevosita yoki onlayn tarzda)	tadbir o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
4.	Ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha jamoatchilik kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirlar	tadbir o'tkazilgan	"2" ball	qoniqarli
		tadbir o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
5.	Davlat dasturlari, ijtimoiy sohalar va hududlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ijrosi bo'yicha davlat organi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish	jamoatchilik nazorati o'tkazilgan	"3" ball	qoniqarli
		jamoatchilik nazorati o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz

III. Davlat hokimiyati organlarining o'z faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yishi, o'z yo'nalishlarida dastur va rejalarni ishlab chiqishi, shuningdek ularni amalga oshirishi jarayonlarida jamoatchilik kengashlari ishtiroki

1.	Davlat organining o'z ish rejalari (strategiyalar, davlat dasturlari asosida tayyorlangan "yo'l xaritasi") to'g'risida jamoatchilik kengashini xabardor qilishi	xabardor qilingan	"2" ball	qoniqarli
		xabardor qilinmagan	"0" ball	qoniqarsiz
2.	davlat organi tarkibiy bo'linmalari tomonidan jamoatchilik kengashini o'z rejalari va faoliyati to'g'risida doimiy xabardor qilib borishi	xabardor qilingan	"2" ball	qoniqarli
		xabardor qilinmagan	"0" ball	qoniqarsiz
3.	jamoatchilik kengashining ularni tashkil etgan davlat organining muhim masalalarda o'tkazilgan yig'ilishlarida ishtirok etishi	ishtirok etgan	"1" ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	"0" ball	qoniqarsiz
4.	jamoatchilik kengashining rahbari yoki a'zolarining davlat organi huzuridagi doimiy kollegial organga kiritilganligi	kiritilgan	"1" ball	qoniqarli
		kiritilmagan	"0" ball	qoniqarsiz

IV. Jamoatchilik kengashi yigʻilishlarida koʻrilgan masalalarning dolzarbligi va ahamiyati				
1.	yigʻilishlarda koʻrib chiqilayotgan masalalarning ommaviy ahamiyati, bugungi kundagi dolzarbligini baholash	dolzarb	“2” ball	qoniqarli
		dolzarb emas	“0” ball	qoniqarsiz
2.	Jamoatchilik kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning qonun hujjatlari bilan ular zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga muvofiqlik holatini oʻrganish	muvofiq	“1” ball	qoniqarli
		muvofiq emas	“0” ball	qoniqarsiz
3.	yigʻilishlarda koʻtarilgan muammolar boʻyicha takliflar ishlab chiqish	takliflar berilgan	“1” ball	qoniqarli
		takliflar berilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
V. Jamoatchilik kengashining ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga rioya qilishi, faoliyatining natijalari boʻyicha jamoatchilikka hisobot berib borishi				
1.	jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat telekanallarida chiqishlar qilish	ishtirok etilgan	“1” ball	qoniqarli
		ishtirok etilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
2.	jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat miqyosidagi radio kanallarida chiqishlar qilish	ishtirok etilgan	“1” ball	qoniqarli
		ishtirok etilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
3.	jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat miqyosidagi nashrlarda materiallar chiqarish	chop etilgan	“1” ball	qoniqarli
		chop etilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
4.	Davlat organi saytlarida jamoatchilik kengashi faoliyatini yoritib borish	maʼlumotlar joylashtirilgan	“1” ball	qoniqarli
		maʼlumotlar joylashtirilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
VI. Jamoatchilik kengashining fuqarolarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organi faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarini, tashabbuslarini, shuningdek ular boʻyicha davlat organiga kiritilgan tegishli takliflarini koʻrib chiqishdagi ishtiroki				
1.	kelib tushgan murojaatlar boʻyicha amalga oshirilgan ishlar tahlili asosida	fuqarolarning kelib tushgan tashabbus va murojaatlarini koʻrib chiqishda ishtirok etgan	“2” ball	qoniqarli
		nodavlat notijorat tashkilotlardan kelib tushgan tashabbus va murojaatlarni koʻrib	“2” ball	qoniqarli

		chiqishda ishtirok etgan		
		davlat organlariga kiritilgan tegishli takliflarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan, o'z fikr-mulohazalarini bergan	"1" ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	"0" ball	qoniqarsiz

VII. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, nazorat yakunlari bo'yicha davlat organiga yakuniy hujjatlarni tayyorlash va natijalari bo'vicha chora-tadbirlarni amalga oshirish

1.	jamoatchilik kengashi tomonidan o'tkazilgan jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish holati	o'tkazilgan	"2" ball	qoniqarli
		o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
2.	jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra tayyorlangan yakuniy hujjatlar mavjudligi (tahliliy ma'lumotnoma, sharhlar, protokollar, takliflar, tavsiyalar)	mavjud	"1" ball	qoniqarli
		mavjud emas	"0" ball	qoniqarsiz
3.	fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi holatlari aniqlangan hollarda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tegishliligiga ko'ra ma'lumotlarni yuborish.	yuborilgan	"1" ball	qoniqarli
		yuborilmagan	"0" ball	qoniqarsiz

VIII. Jamoatchilik kengashining fuqarolar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasi

1.	jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan fuqarolarni qabul qilishni tashkil etish	muntazam	"5" ball	yaxshi
		haftada bir marta	"3" ball	qoniqarli
		umuman tashkil etilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
2.	jamoatchilik kengashining davlat organi rahbari tomonidan fuqarolarni qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi	ishtirok etgan	"2" ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	"0" ball	qoniqarsiz

IX. Jamoatchilik kengashining uni tashkil etgan davlat organi bilan faoliyatni birgalikda yo'lga qo'yish bo'yicha hamkorligi				
1.	davlat organi bilan faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek davlat organi tomonidan fuqarolar huquq va manfaatlariga zid tarzda ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, yo'riqnomalar, nizom va boshqa hujjatlar ishlab chiqilganda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish	normativ-huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqish va takliflar kiritish	"3" ball	yaxshi
		yo'riqnoma, nizom va boshqa hujjatlarni ko'rib chiqish va takliflar kiritish	"2" ball	qoniqarli
		ko'rib chiqilmagan, takliflar kiritilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
2.	davlat organi faoliyati bo'yicha "Yo'l xaritalari", ish-rejalarini va ularning bajarilishi haqidagi hisobotlarni ko'rib chiqish	"yo'l xaritalari", ish-rejalarini ko'rib chiqish	"2" ball	qoniqarli
		ish-rejalar ijrosiga taalluqli hisobotlarni ko'rib chiqish	"2" ball	qoniqarli
		ko'rib chiqilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
3.	davlat dasturlari, harakat rejaları va davlat organi faoliyati bilan bog'liq boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha jamoatchilik kengashi tomonidan eshituvlar otkazilganligi, takliflar ishlab chiqilganligi	jamoatchilik eshituvi o'tkazilgan, takliflar ishlab chiqilgan	"1" ball	qoniqarli
		o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
4.	davlat dasturi va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, davlat qo'mitasi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni monitoring qilish va tahlil qilish sohasida, shuningdek ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash	korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha seminarlar, davra suhbatlari, yig'ilishlarda ishtirok etish	"2" ball	qoniqarli
		davlat organida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari bo'yicha monitoring olib borish, takliflar ishlab chiqish	"2" ball	qoniqarli

		ishtirok etilmagan, takliflar berilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
5.	jamoatchilik kengashi tomonidan davlat organining davlat xaridlari hamda kadrlar bilan ishlash samaradorligini baholab borilishi	amalga oshiriladigan xaridlar (tovarlar, ishlar va turli xizmatlar bo'yicha) muhokamasida ishtirok etish	“2” ball	qoniqarli
		xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish talablariga rioya etilishi bo'yicha komissiyalar faolivatida ishtirok etish	“1” ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	“0” ball	qoniqarsiz

X. Davlat organi faoliyatiga doir masalalar bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish

1.	fuqarolar orasida tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda ishtirok etish	ishtirok etgan	“2” ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	“0” ball	qoniqarsiz
	fuqarolar orasida tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish	ishlab chiqqan	“2” ball	qoniqarli
		ishlab chiqmagan	“0” ball	qoniqarsiz
2.	jamoatchilik kengashi yig'ilishlarida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining murojaatlarini ko'rib chiqish	ko'rib chiqilgan	“1” ball	qoniqarli
		ko'rib chiqilmagan	“0” ball	qoniqarsiz
3.	davlat organi tomonidan ommaviy xususiyatga ega qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolarning taklif va mulohazalari bilan ishtirok etishi bo'yicha yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	takliflar mavjud	“1” ball	qoniqarli
		takliflar mavjud emas	“0” ball	qoniqarsiz

4.	fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'sir etuvchi eng muhim masalalar bo'yicha ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish	ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilgan	"2" ball	qoniqarli
		ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
5.	so'rovnomalar o'tkazish (shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish), natijasiga ko'ra takliflar ishlab chiqish	ishlab chiqqan	"2" ball	qoniqarli
		ishlab chiqmagan	"0" ball	qoniqarsiz

XI. Mamlakatni sohalar va hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, dasturlar tasdiqlash va ularni amalga oshirishda jamoatchilik kengashlarining davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi

1.	ijtimoiy sheriklik sub'yektlari (davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) bilan ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi bitim va shartnomalar tuzish, birgalikda loyiha va reialar ishlab chiqish va amalga oshirish	shartnoma va kelishuvlar tuzilgan	"2" ball	qoniqarli
		shartnoma va kelishuvlar tuzilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
2.	nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarida ishtirok etish.	dastur amalga oshirilgan	"2" ball	qoniqarli
		dastur amalga oshirilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
3.	ijtimoiy sheriklik doirasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va bu borada dasturlarni amalga oshirish bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish	dastur ishlab chiqilgan	"2" ball	qoniqarli
		dastur amalga oshirilgan	"2" ball	qoniqarli
		dastur ishlab chiqilmagan	"0" ball	qoniqarsiz
4.	ijtimoiy sheriklik sub'yektlari bilan hamkorlikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralarda ishtirok etish.	ishtirok etgan	"1" ball	qoniqarli
		ishtirok etmagan	"0" ball	qoniqarsiz